


Akademik Shavkat Vohidov 90 yilligiga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi

O'zR FA Yadro fizikasi institutida yadro fizikasi va kosmik muhandislik sohasidagi yirik olim, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, FA akademigi Vohidov Shavkat Axadovich (1932-2008-yy.) 90 yilligiga bag'ishlangan tadbir o'tkazildi. Unda akademiklar, soha yetakchi mutaxassislari, akademikning shogirdlari va oila a'zolari ishtirok etdi.





Tadbirida soʻzga chiqqanlar akademik Shavkat Vohidovning hayoti, ilmiy va jamoatchilik faoliyati, uning mamlakatimizda kosmonavtika sohasiga qoʻshgan hissasi, aerokosmik maktabi va olim bilan bogʻliq xotiralar haqida gapirib berdilar.

Tadbirida akademikning faoliyatini aks ettirgan fotokoʻrgazma ham tashkil etildi. Tadbir yakuniga olim xotirasiga bagʻishlangan film namoyish etildi.





Ma'lumot o'rnida, Sh.A.Vohidov "Koinot" ilmiy ishlab chiqarish boshqarmasi Bosh direktori, O'zbekiston Respublikasi Kosmonavtika federatsiyasi prezidenti lavozimlarida faoliyat yuritgan. Olim iqtidorli maktab o'quvchilari Xalqaro aerokosmik maktabi tashkilotchisi va rahbari bo'lgan.

Olimning ilmiy ishlari qattiq jismlar fizikasi, kosmonavtika, spektroskopiya, kristallografiya, radiotexnika va aloqa, asbobsozlikka bag'ishlangan.

Olimning bevosita rahbarligida orbitadagi sun'iy yo'ldoshlarga meteorlar, fazodagi chiqindilar yoki maxsus jismlar bilan ta'sir ko'rsatilganda shu hodisa qachon va qayerda sodir bo'lganligidan xabar beradigan ixcham yo'ldosh, shuningdek tabiiy ofatlar yuz berishidan xabar beradigan va oldini oladigan asboblari, qishloq xo'jaligi uskunalari yaratildi.